**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318444

***materiallar to'plami***

# O'ZBEKISTONNING BMTGA A'ZO BO'LISH JARAYONI

**Ataxanova Gavharoy Anvarbekovna,**
**Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'lini tanladi va og'ishmay shu yo'ldan bormoqda.O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish–irodasi va taklifiga ko'ra 1992–yil 2–martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot– Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993– yilda bo'lgan 48– sessiyasida ishtirok etishi va unda 27– sentabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh, navqiron davlat sifatida namoyon etdi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflar o'rtaga qo'yildi.

1993–yil 24–oktabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y–harakatlari natijasida O'zbekiston BMT–ning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqiyoti tashkiloti, Oziq–ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi.

1994–yil oktabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda boigan jahon sayyohlik tashkilotining **"Ipak yo'li"** xalqaro yig'ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O'zbekistonning mavqeyini yanada ko'tardi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995– yil 15–16– sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash–seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masa–lalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

1993–yil 24–oktabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y–harakatlari natijasida O'zbekiston BMT–ning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat



Published: 10.11.2023

**Cite this article:** Ataxanova Gavharoy Anvarbekovna (2023). O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lish jarayoni. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318444

*© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

taraqiyoti tashkiloti, Oziq–ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo‘ldi.

1994–yil oktabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda boigan jahon sayyohlik tashkilotining “**Ipak yo‘li”** xalqaro yig‘ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O‘zbekistonning mavqeyini yanada ko‘tardi.

O‘zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995– yil 15–16– sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan Toshkent kengash–seminari bo‘lib o‘tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masa–lalari yuzasidan o‘z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o‘z ifodasini topdi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48– sessiyasi minbaridan turib so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g‘oyasini ilgari surgan edi. O‘zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab–quvvatlandi.

2000– yil oktabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001– yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha maxsus qo‘mitasi ta'sis etildi. 2002–yil 18–20–oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O‘zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib, obro'–e'tibori ortib borayotganining dalilidir.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyatga qirg‘inlar bilan birga bitmas ma'naviy jarohatlar etkazgan ikkinchi jahon urushi yakuniga ko‘ra, barcha davlatlarning boshini qovushtiruvchi, eng muhim masalalar bo‘yicha muzokaralar o‘tkazuvchi, urushdan keyingi «o‘yin qoidalari»ni belgilab beruvchi hamda uning talablarini barcha tan oluvchi tashkilotga zarurat borligi anglab etildi.

Aslida «Birlashgan Millatlar» degan atama bundan oldinroq – 1942 yilda «Birlashgan Millatlar deklaratsiyasi» imzolanganda qo‘llangandi.

1945 yilning 26 iyunida 50 davlat ishtirokida BMT nizomi tasdiqlandi va shu yilning 24 oktyabrida bu nizom kuchga kirdi *(shundan buyon bu kun BMT kuni sifatida nishonlanadi)*.

Har yili sentabr oyida navbatdagi sessiyasini o‘tkazadigan Bosh Assambleyaning ko‘plab qo‘mitalari bor. Umuman, BMT sessiyalari navbatdagi, maxsus va favqulodda tartibda o‘tkaziladi. Maxsus va favqulodda sessiyalar odatda

Xavfsizlik kengashi tashabbusi bilan va shoshilinch vaziyatlarda (masalan, kasallik tarqalganda, kutilmagan harbiy harakatlarda) o‘tkaziladi.

BMT tarkibidagi juda nufuzli va ahamiyatli tuzilma – Xavfsizlik kengashi hisoblanadi. Xavfsizlik kengashi jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlab turishda juda katta rol o‘ynaydi va uning qarorlariga ham BMTga a'zo bo‘lgan barcha davlatlar bo‘ysunishlari shart. Bu tuzilma BMT nizomi kuchga kirgan paytdan buyon ishlab kelmoqda va uning tarkibida 5ta doimiy va 10ta doimiy bo‘lmagan a'zo davlat bor.

Bugungi kunda BMT faoliyati ko‘p tanqidga uchrayotganining asosiy sabablaridan biri pandemiyadir. Juda ko‘p davlat rahbarlari, jumladan, Hindiston bosh vaziri Narendra Modi, Turkiya prezidenti Erdo‘g‘an BMT koronavirusga qarshi kurashda juda sustkashlikka yo‘l qo‘yganini ta'kidlagan va ularning bu fikrlarini ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlagan.

Biror tan olingan davlat BMT a'zosi bo‘lishi uchun uni Xavfsizlik kengashining doimiy bo‘lmagan 15 a'zosining kamida 9tasi, doimiy a'zolarining barchasi tasdiqlashi kerak. Xavfsizlik kengashi o‘z tavsiyasini Bosh Assambleyaga taqdim etadi. Bosh Assambleya navbatdagi sessiyada umumiy a'zolarning uchdan ikkisi roziligiga ko‘ra bu davlatni qabul qilish bo‘yicha rezolyutsiya qabul qiladi.

So‘zga chiquvchilar mana shu tillardan birini tanlab so‘zlashlari, agar o‘zlariga ma'qul, ammo rasmiy til maqomida bo‘lmagan boshqa tilda yoki ona tilida so‘zlasa,

- **BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING 6TA RASMIY TILI BOR:**

1. Ingliz tili, BMTda ingliz tili kuni – 23 aprel (Shekspir tug‘ilgan kun);
2. Fransuz tili, bu til kuni — 20 mart (Xalqaro frankofoniya kuni);
3. Rus tili, bu til kuni — 6 iyun (Pushkin tug‘ilgan kun);
4. Ispan tili, bu til kuni — 12 oktabr («Día de la Hispanidad» — ispan madaniyati kuni);
5. Xitoy tili, bu til kuni — 20 aprel (xitoy yozuvi asoschisi Tsan Tszega bag‘ishlangan);
6. Arab tili, bu til kuni — 18 dekabr (1973 yilda Bosh Assambleyada arab tili rasman qabul qilingan kun).

rasmiy tillarning biridagi og‘zaki yoxud yozma tarjimani ta'minlab berishlari kerak.

O‘zbekiston 1992 yil 2 mart kuni jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida BMTga a'zo bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat

Mirziyoyev ham o‘z chiqishlarining birida rasmiy til hisoblangan rus tilidan, yana birida esa o‘zbek tilidan foydalangan.

Bugungi kunda tanqidlarga nishon bo‘layotganiga, ko‘pchilik qarorlari qog‘ozda qolib ketayotganiga qaramay, BMT o‘z asosiy vazifalarini uddalay olyapti. Ming va undan ortiq harbiylar qatnashgan urushlar soni keskin kamaygan, davlatlarning harbiy salohiyati keskin oshganiga qaramay, koalitsiya tuzgan holda olib borilayotgan yirik urushlardan tiyilib turibdilar, yadro qurollarining soni va vayronkorlik qudrati aql bovar qilmas darajaga etgan bo‘lsa-da, Nagasaki va Xirosima xulosasini hozircha hech kim unutgani yo‘q.

Barcha davlatlarga teng huquq berish prinsipi asosida BMTda aksariyat a'zolar g‘azabiga uchragan davlatlar rahbarlariga ham so‘z beriladi. Turli davrlarda bu minbardan Muammar Qazzofiy, Ugo Chaves, Mahmud Ahmadinajot nutq irod qilgan. Aslida, bunday insonlar soni juda ko‘p. Bu uchovlon eslanishining sababi Liviya rahbari Muammar Qazzofiy «viruslar tarqatiladi va ularga qarshi dorilar katta pulga sotiladi» degani, Venesuela prezidenti Ugo Chaves AQSh prezidenti Jorj Bushga qarata «Hozirgina iblisni ko‘rdim» deya cho‘qingani, Eron prezidenti Mahmud Ahmadinajot 11 sentabr teraktlarini AQShning o‘zi uyushtirganini va Isroilni AQShga ko‘chirib yuborish zarurligi haqida va'z o‘qiganida esa zalda o‘tirganlarning aksariyati norozilik belgisi sifatida chiqib ketgani bo‘lgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_Millatlar_Tashkiloti
2. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2012/03/120302_latin_un_uzbekistan_20
3. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-bmtga-azo-bolganiga-30-yil-toldi
4. http://insonhuquqlari.uz/oz/news/2-mart-ozbekiston-bmtga-azo-bolgan-kun